

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

IROQLIK ZAMONAVIY YOZUVCHI ABDURAHMON MAJID AR-RUBAY'IY
IJODIGA BIR NAZAR*Dilafroz Muxiddinova**O'qituvchi, filologiya fanlari doktori (DSc),
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: arab dunyosi, Iroq adabiyoti, qisqa hikoya, an'ana va novatorlik, individualizm, realizm, modernizm, "ong oqimi".

Annotatsiya: Arab dunyosi xilma-xil va rang-barangdir. Har bir arab mamlakatining o'ziga xos madaniyati, adabiyoti mavjud. Zamonaviy Iroq adabiyoti, xususan, hikoyanavisligi o'zining sarmahsulligi va ijodkorlar uslubining o'ziga xosligi bilan o'z milliy xususiyatlarini namoyon qiladi.

XX asrning o'rtalariga kelib umumjahon adabiy jarayonlar ta'siri natijasida bir qator Iroq adiblari arab xalqining dunyoqarashi, qadriyatlarini, milliy xususiyatlariga mutanosib bo'lgan asarlarni yaratdilar. Bu davrga kelib "qisqa hikoya" (القصة القصيرة - al-qissa al - qasira) – hikoya janri Iroq adabiyotining yetakchi janrlaridan biriga aylandi. Iroq hikoyanavisligidagi ana shunday tamoyillarni Abdurahmon Amin, Ja'far al- Haliliy, Xalaf Shavqiy ad-Doudiy, Ibrohim Solih, Mixail Tesiy, Nuri Sobit, Abdurazzoq ash-Shayx Ali, Mahdi Iso as-Saqar, Salah Salmon, Edmon Sabri, Abdulhaq Fodil, Abdulmajid Lutfi, Fuad at- Tekerliy, Majid ar-Rubay'iy, Abdumalik Nuriy, Yusuf al- Haydariy va boshqalarning ijodida ko'rish mumkin. Abdurahmon Majid ar-Rubay'iy zamonaviy Iroq adabiyotining yorqin namoyandalaridan biridir. Adibning ijodini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr 1966–1969-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda uning uchta hikoyalar to'plami nashrdan chiqdi. Yozuvchi ijodining ikkinchi davri 1970-1975-yillarga to'g'ri keladi. Majid ar-Rubay'iy ijodining uchinchi davri 1976 – 1979-yillarga to'g'ri keladi. XX asrning 80- yillariga kelib Majid ar-Rubay'iy ijodida yangi bir davr boshlandi. Bu davrda o'z xalqining tarixini yoritish, an'anaviy janr xususiyatlarini yangicha badiiy – uslubiy izlanishlar jarayonida davom ettirish asosiy maqsadlaridan biriga aylandi.

СОВРЕМЕННЫЙ ИРАКСКИЙ ПИСАТЕЛЬ АБДУРАХМАН МАДЖИД АР-РУБАЙИ ВЗГЛЯД НА ЕГО ТВОРЕНИЕ

Дилафруз Мухиддинова

Преподаватель, доктор филологических наук (DSc),

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Арабский мир, иракская литература, новелла, традиция и новаторство, индивидуализм, реализм, модернизм, «поток сознания».

Аннотация:

Арабский мир разнообразен и красочен. Каждая арабская страна имеет свою культуру и литературу. Современная иракская литература, в частности повествовательное письмо, проявляет свои национальные особенности своей плодотворностью и оригинальностью авторского стиля.

К середине 20 века в результате влияния мировых литературных процессов ряд иракских писателей создали произведения, соответствующие мировоззрению, ценностям и национальным особенностям арабского народа. К этому времени жанр «рассказа» (القصة القصيرة - al-qissa al-qasira) стал одним из ведущих жанров иракской литературы. Такие принципы в иракском повествовании Абд Вахаб Амин, Джафар аль-Халили, Халаф Шауки ад-Дуди, Ибрагим Салих, Михаил Теси, Нури Собит, Абдур Раззак аль-Шейх Али, Махди Иса ас-Сакар, Салах Салман, Эдмон Сабри, Абдулхак Фадил, Абдулмаджид Это можно увидеть в работах Лютфи, Фуада ат-Текерли, Маджида ар-Рубаи, Абдумалика Нури, Юсуфа аль-Хайдари и других. Абдуррахман Маджид ар-Рубаи — одна из ярких фигур современной иракской литературы. Творчество автора можно разделить на четыре периода. Первый период включал 1966-1969 годы, в течение которых были изданы три сборника его рассказов. Второй период творчества писателя соответствует 1970-1975 годам. Третий период творчества Маджида ар-Рубаи соответствует 1976-1979 годам. К 80-м годам 20 века в творчестве Маджида аль-Рубаи началась новая эра. В этот период одной из главных его задач было осветить историю своего народа, продолжить традиционные черты жанра в процессе новых художественно-методических исследований.

KIRISH

Zamonaviy Iroq adabiyoti, xususan, hikoyanavisligi o'zining sermahsulligi va ijodkorlar uslubining o'ziga xosligi bilan o'z milliy xususiyatlarini namoyon qiladi. XX asr Misr, Suriya, Iroq, Livan, Iordaniya, Falastin va boshqa bir qator arab mamlakatlari adabiyotida hikoya janrining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari, uning namoyandalari ijodi muayyan darajada

o'rganilgan bo'lsa-da, Iroq adabiyotining taniqli vakili Abdurrahmon Majid ar-Rubay'iy ijodi nisbatan kam o'rganilgan. Zamonaviy Iroq adabiyoti, xususan, Abdurrahmon Majid ar-Rubay'iy ijodini tadqiq qilish umumarab adabiyoti, xususan Mashriq mamlakatlari adabiyoti taraqqiyoti haqida yanada to'liqroq tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradi.

XX asrning o'rtalariga kelib umumjahon adabiy jarayonlar ta'siri natijasida bir qator Iroq adiblari arab xalqining dunyoqarashi, qadriyatlarini, milliy xususiyatlariga mutanosib bo'lgan asarlarni yaratdilar.

TADQIQOTNING USULLARI

Iroq adabiyotining zamonaviy, yorqin namoyandalaridan biri, hikoyanavis, romannavis Abdurrahmon Majid ar-Rubay'iy ijodiy faoliyati, uning hikoyalarining badiiy-estetik xususiyatlarini yoritib berish.

Usullar: qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

XX asrning 70-80 yillarida ham Iroq adabiyotida yangilanish jarayonlari davom etdi. Bu davrga kelib hikoyanavislikda Iroq-Eron urushi va uning salbiy oqibatlarini, shuningdek, sufiyona mavzular yetakchi o'rinlarni egalladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan yozuvchilar bilan bir qatorda Jalil Qaysiy, Ahmad Halaf, Faraj Yosin va boshqalarning hikoyalarida yangi badiiy tasvir vositalarini arab adabiyotining boy merosi bilan uyg'unlashgan holatini ko'rishimiz mumkin. Bu davrga kelib asr o'rtalarida rivojlangan "qisqa hikoya" (القصة القصيرة) shakli o'rniga hikoyaning yangi shakli o'n besh – ellik sahifadan iborat "uzun hikoya" (القصة الطويلة) rivojlandi. "Uzun hikoya" larda markazga qo'yilgan masala yanada kengroq va batafsilroq yoritilib, ularda tarixiy voqealar, inson ruhiyati, ichki olami, o'y-kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlashga, yorqinroq aks ettirishga harakat ochiq seziladi. "Iroq hikoyanavislari har doim o'zlarini ro'y berayotgan voqealar, Iroq xalqi taqdiri uchun mas'ul sezar, o'quvchilarni o'z hayotlari borasida fikrlashga majbur qilishga harakat qilishar, buni o'zlarining yozuvchilik va fuqarolik burchlari deb bilishar edi. Uzoq muddat davomida ular ijodi rivojlana borib, bayonning sodda, bir chiziqli uslubidan rang-barang, boy badiiy vositalardan foydalanish darajasiga ko'tarildi. Hayot haqiqatini tasvirlashda turli-tuman ifoda usullaridan foydalanish hozirgi zamon kishisi tasvirining jozibali bo'lishiga olib keldi."¹ Mana shunday shu davrning yorqin ijodkorlaridan Abdurrahmon Majid ar-Rubay'iy ijodida ham ko'rish mumkin.

Abdurrahmon Majid ar-Rubay'iy zamonaviy Iroq adabiyotining yorqin namoyandalaridan biridir. U 1939-yil 12-avgustda Iroq janubidagi Nosiriya shahrida tug'ilgan. Boshlang'ich va o'rta ta'limni shu yerdagi Malik Faysal maktabida olgan. O'rta maktabni bitirgandan so'ng Bag'doddagi Nafis san'at institutining plastik san'at yo'nalishiga o'qishga kirib, shu mutaxassislik bo'yicha bitirgan. 60- yillarning o'rtalariga kelib arab va g'arb gazetalarida dastlabki hikoyalarini chop ettira boshlaydi. Uning birinchi to'plami "Qilich va kema" (السيف و السفينة) 1966-yilda nashrdan chiqadi. Abdurrahmon ar-Rubay'iy o'z mehnat faoliyatini "Yangiliklar" (الاجبار) va "Yangi tong" (الصباح الجديدة) gazetalarini tahririyatidan boshlagan. Livan va Tunisda dars bergan, jurnalistik va diplomatik faoliyat bilan shug'ullangan. 1983-1985-yillarda Iroq jurnalistik maslahatchisi vazifasida ishlagan. Ar-Rubay'iy turli yillarda Bayrut va Tunisdagi Iroq madaniyat markazlari boshlig'i lavozimlarida ishlagan. Tunis madaniyat vazirligi tomonidan nashr etiladigan "Madaniy hayot" (الحياة الثقافية) jurnalining tahririyat a'zosi. U Iroq

¹ Xodjayeva R.U., Akbarova M., Ziyavuddinova M., Muhiddinova D. va bshq. Arab adabiyoti 2. -T.: TDSHI, 2016. 442-443-betlar.

yo'zuvchilar uyushmasi, Iroq jurnalistlar kasaba uyushmasi va Iroq plastik san'at jamiyati a'zosi. Nosiriya maktablarida san'atshunoslik fanlaridan ham dars bergan.

Ar-Rubay'iy jurnalistik faoliyat bilan bir qatorda rasm chizish va plastik san'at bilan ham shug'ullanadi. U ko'plab hikoyalar, romanlar va she'rlar muallifidir.²

Yozuvchining "Tatuirovka" (الوشم) romani 2001 yilda eng yaxshi arab romanlari yuztaligi orasidan o'rin oldi.³

Adibning ijodini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr 1966 – 1969-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda uning uchta hikoyalar to'plami nashrdan chiqdi. Bular "Qilich va kema" (السيف و السفينة, 1966), "Boshda soya" (الظل في الرس, 1967) va "Horg'in sayohat yuzi" (وجوح من رحلة التعب, 1969) to'plamlaridir.

"Bu davr o'sha vaqtdagi yaratilgan iroq hikoyachilik uslublarini qat'iyankor inkor qiladi. O'zini (davr) o'rab turgan voqe'likdan uzoqlashadi va yangi hikoya tajribalarini mujassam etgan o'ziga xos olamni yaratadi."⁴ Bu davr hikoyalarida yozuvchining individual yondashuvini ko'ramiz. Bu davrda yaratilgan "Ko'z" (العين), "Avad pasha" (عواد باشا) va boshqa bir qator hikoyalarida syurrealizm oqimining ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchining ayrim asarlarida ramziy obrazlar vujudga keldi. Jumladan, uning bu davrda yozilgan "Qilich va kema" hikoyasidagi voqealar ramziy, majoziy ravishda aks ettirilib, qonxo'r, zulm va dahshat egasi bo'lgan qilich kemani yakson qilish maqsadida ta'qib qiladi. Kema esa qiyinchiliklarga qaramay undan qochishga muvaffaq bo'ladi. Mazkur hikoyada yozuvchi ramziy obrazlar orqali Iroqdagi hokimiyat - qilich zulmidan qiynalgan xalq - kemaning ayanchli ahvoli, ruhiyati, qiyinchilik va adolatsizlikdan boshqa yurtlarga ketib qolishi ochib beriladi.

Yozuvchi ijodining ikkinchi davri 1970-1975-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda u "Tushdagi ko'zlar" (عيون في الظلم), "Shahar xotirasi" (ذاكرة المدينة, 1974), "Boshqa mavsumlar" (المواسم الاخرى, 1970) kabi hikoyalar to'plamlarini yaratdi. Ispan sharqshunosi Marisa Gonsales ta'kidlashicha, "Bu davrda yozuvchi uslubi haqida shuni aytish mumkinki, u o'zining yopiq, ba'zida devordek to'siq bo'luvchi olami – individualizm qolipidan chiqib, umumiy olam tomonga qadam tashladi. Yozuvchi asarlarida ramziylik kuchaydi."⁵

Bu davrdagi ba'zi asarlarida u 1968-yilda Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi (BAAS)ni hukumat tepasiga keltirgan inqilobni qalamga oladi va BAASga tarafdorlik ruhida adabiyotni vujudga keltirishga chaqiradi.

Majid ar-Rubay'iy ijodining uchinchi davri 1976 – 1979-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda uning ikkita: "Otlar" (الخيول, 1976) va "Og'izlar" (الافواه, 1979) to'plamlari nashrdan chiqdi. Ko'pchilik adabiyotshunoslar bu davrni yozuvchining avvalgi ijodiy davri davomi sifatida ko'radilar. Bu davr hikoyalarida yozuvchining voqelikka shaxsiy yondashuvlari murakkablashib, turli arab va yevropa adabiy maktablari ta'sirida mukammallashib boradi.

XX asrning 80- yillariga kelib Majid ar-Rubay'iy ijodida yangi bir davr boshlandi. Bu davrda o'z xalqining tarixini yoritish, an'anaviy janr xususiyatlarini yangicha badiiy – uslubiy izlanishlar jarayonida davom ettirish asosiy maqsadlaridan biriga aylandi. 1983-yil Bayrutda uning "Suv siri" (سر الماء) hikoyalar to'plami nashrdan chiqdi. 1993-yilda esa Tunisda qayta nashr qilindi. To'planning ikkinchi nashri muqaddimasida Majid ar-Rubay'iy "Agar men to'plamimni asarlarim bilan 1976-yilda Tunisda nashr qilingan "Tatuirovka" romanini,

² <http://catalogue.bnf.fr/ark:/12148/cb14487593z>

³ www.mnaabr.com/vb/showthread.php?t=6821

⁴ عبد الرحمن مجيد الربيعي. سر الماء. قصص مختارة. سوسة- تونس. 1993. ص.7.

⁵ عبد الرحمن مجيد الربيعي. سر الماء. قصص مختارة. سوسة- تونس. 1993. ص.8.

keyinchalik “Otlar” to‘plamim, “Oy va devorlar”, “Daryolar” va “Bo‘yiga chiziqlar... eniga chiziqlar” kabi romanlarim orqali yaxshi tanish bo‘lgan tunis o‘quvchisi qo‘lida ko‘rsam o‘z orzu-umidlarimga erishdim deb hisoblayman” - degan edi.⁶

Shu to‘plamga kirgan “Suv siri” hikoyasi badiiy - tasvir uslubi jihatidan o‘rta asr arab adabiyoti nasriy janrlaridan rihla – sayohatnoma janr xususiyatlariga xosdir. Majid ar-Rubay’iy hikoya qahramoni sotsiolog sayyoh nigohi orqali o‘z yurtining noyob tabiati va u yerda yashovchi mahalliy xalq hayotining turli tomonlarini aks ettiradi. Ularni yoritishda o‘rta asr arab xalq rivoyatlariga murojaat qiladi.

Majid ar-Rubay’iy asarlarida turli-tuman mavzularni uchratamiz. Ulardan biri hikoyalarning avtobiografik xarakterga ega ekanligidir. Ba’zi hikoyalardi yozuvchining o‘zi asar qahramoni sifatida namoyon bo‘ladi va shaxsiy hayoti orqali xos fikrlarni bayon etadi. Adib hikoyalardagi ayollar obrazi ham turli-tumandir. Yozuvchi ijodining dastlabki davrlarida sevimli ayol oliy timsol sifatida gavdalanadi. Mumtoz arab adiblari yoki shoirlar ifodalagandek ayol yaratilgan barcha maxluqotlarning eng go‘zali, uning ko‘zlari va sochlari eng jozibador xilqatdir. Yuzlari oq va nurafshon, qaddi esa go‘yo bambuk singari tik va viqorlidir. Barcha ayollar ichida eng yuqori mavqe’ga ega ayol bor – bu uning onasidir. Onasi uni tarbiyaladi, balog‘atga yetkazdi, xatolarini to‘g‘riladi, lekin u uni yo‘qotdi. Bu yo‘qotish dardi ba’zi hikoyalar mazmuniga singib ketdi. “Barcha hikoyalar yozuvchi uchun tanish bo‘lgan muhitlarda yozilgan, chunki u shu muhitlarda yashagan yoki biror-bir munosabat bilan u yerga safar qilgan. U hikoya tafsilotlariga go‘yo tomoshabinni asta-sekin kinodagi voqeaga olib kirgan rejissyordek kirib boradi. Lekin bunda “dekoratsiya” muhim emas, muhimi uning ichida harakat qilayotgan “aktyorlar” dir.”⁷

Adib hikoyalari qahramonlari qishloqqa pokiza, go‘zal, shahar yolg‘onlari va soxtaliklaridan holi bo‘lgan olam sifatida qaraydilar. Hikoyalardagi qishloq ko‘rinishi inson ruhiyatining ramzi sifatida tasvirlanadi (“Avad pasha” hikoyasi). Boshqa tomondan esa go‘zal tabiat bag‘ridagi dehqonlarning qiyin, charchoqli hayoti ham o‘z aksini topadi (“Boshqa mavsumlar” hikoyasi). Shu sababli aksariyat yoshlar qishloqlardan shaharlarga ketib qoladilar. Ularning tasavvurida shaharda boylikka ko‘miladilar, qulay ish va binolar, sobit daromad kutib turibdi. Aslida-chi, aslida ular turli vaziyatlarga to‘qnash keladilar.

Bag‘doddek katta shahar esa qahramonga tashvish va alam keltiradi. Nosiriya shahri esa rivojlanganligiga qaramasdan qishloqqa yaqinroq. Shu ikki Bag‘dod va Nosiriya shaharlari ar-Rubay’iy hikoyalarda ko‘p tilga olinadi. Lekin yozuvchi hikoyalarda shaharlarning tavsifiga berilib ketmaydi, aksincha qahramonlar ko‘p vaqtlarini norjila⁸ chekish, domino o‘ynash, kelajak haqidagi o‘ylar bilan o‘tkazadilar. Siyosiy mavzulardagi suhbatlar esa asosan qahvaxonalar yoki mayxonalarda talabalar, adiblar yoki o‘qituvchilar o‘rtasida bo‘lib o‘tadi.

Majid ar-Rubay’iy qahramonlarining ba’zilari go‘yo qatag‘onga uchragan kimsalardek doim o‘zlarini qurbon sifatida sezadilar. Bu bilan yozuvchi o‘sha davr yoshlarining ahvolini o‘zining shaxsiy qarashlari orqali ifodalashga harakat qiladi. Hikoya qahramoni o‘zining azoblarini muhabbat va mehrdan izlaydi, shuning uchun azoblarga panoh izlab ayollarga intiladi. Lekin ayollardan biri fohisha bo‘lib, pul va moddiy boylik uchun unga mehr ko‘rsatayotgani ma’lum bo‘lib qoladi. Bu esa asar qahramonining dardiga yana dard qo‘shadi.

⁶ عبد الرحمن مجيد الربيعي. سر الماء. قصص مختارة. سوسة-تونس. 1993. ص. 18.

⁷ عبد الرحمن مجيد الربيعي. سر الماء. قصص مختارة. سوسة-تونس. 1993. ص. 10.

⁸ Norjila – chilimga o‘xshash chekish asbobi.

Hikoyalarning aksariyatida yozuvchi birinchi shaxs tili, hikoyachi tomonidan gapiradi va shu orqali qahramon va o'quvchi o'rtasida aloqa o'rnatishga harakat qiladi. Ahyon-ahyonda qahramon o'zi bilan o'zi gaplashadi va biz hikoyada uning mahzun monologlarini uchratamiz. Bunday hikoyalarda yozuvchi qahramonning his-tuyg'ulari, orzu-umidlari va o'zgaralar bilan munosabatlarini mohirlik bilan yoritadi. Buni biz yozuvchining "Tutqun qushning chiriqlashi" (زقزقة الطائر الاسير) hikoyasida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi hikoyalarda birinchi shaxs tilidan gapirilsa-da, hikoyachi asarning asosiy qahramoni sifatida gavdalanmaydi. Bunday o'rinda yozuvchi asar markaziga bir yoki bir necha shaxslarni olib chiqadi. Hikoyachi esa ularga nasihat qiladi va ogohlantiradi. Ba'zida esa "ko'z qiri bilan" o'quvchiga boqadi.⁹ Adibning "Behalovat qo'riqchilar guruhi ordeni" (وسام جوقه الحراس المهمومين) hikoyasi shunday uslubda yozilgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, yozuvchining ba'zi hikoyalarida yangilanish tamoyillari, ya'ni modernistik uslubiy vositalar - so'z o'yini, matn ostida matn kabilar uchraydi.

Abdurrahmon Majid ar-Rubay'iyning "Yer isi" (رائحة الارض) hikoyasi o'ziga xos uslubda yozilgan asarlardan biri bo'lib, unda tarix va zamona uyg'unlashib ketadi.

Majid ar-Rubay'iy bu hikoyasini 1970-yilda yozgan. Hikoya kompozitsiyasi o'ziga xos bo'lib, olti bo'limdan iborat va har bir bo'lim alohida nomlanadi. Birinchi "Shahar" deb nomlanuvchi bo'limda yozuvchi Nosiriya (N) shahri manzaralari, undagi binolar ta'rifi, Furot daryosining bitmas-tuganmas suvlari haqida jo'shib gapiradi. So'ng yozuvchi Nosiriyaning tarixiga nazar soladi. Qadimda Furot daryosi qirg'oqlarida chopgan Bobil¹⁰ otlari, o'rta asrlarda bu yerlarda hukmronlik qilgan Xulagu xon¹¹, Nosiriya shahri asoschisi Nosir al-Ashqar¹² haqida gapirib o'tadi.

"U bu sahovatli qirg'oqlarga kelgan kuni o'z qo'shinlari uchun mos keladigan makonni ko'rdi. Ular bu yerga o'z chodirlarini o'rnatdilar, sarg'imgir otlarini yam-yashil ko'katlardan bahra olish uchun keng yaylovlarga qo'yib yubordilar. Bir kun maysazor chetida to'xtab yuz-qo'lini yuvdi, so'ng bu yerda shahar barpo etamiz dedi."

Ularning qo'llari bilan qurilgan saroylar va masjidlar hanuzgacha qad rostlab turibdi. Yozuvchi hikoyada arab davlatlari muammosiga aylangan muhojirlik masalasini ko'tarar ekan, bu yerlarga g'arbliklar kelganlaridan so'ng ko'pchilik tinchlik va xotirjamlik izlab o'z yerlarini tashlab chiqib ketganliklarini kuyunib gapiradi.

Bu bo'lim shunday so'zlar bilan yakunlanadi:

"O'z yeringizga qayting, ey, muhojirlar!"

Hikoyaning ikkinchi bo'limi "So'zlar" (كلام) deb nomlanib, yozuvchi unda muhojir bilan suhbat orqali uni vataniga qaytishga da'vat etadi. Bu bo'lim oxiriga qadar dialog uslubida yozilgan va asosan muhojir bilan savol-javob tarzida bayon etiladi.

Keyingi bo'limlarda Majid ar-Rubay'iy Badr an-Ni'ma va uning farzandlari haqida so'z yuritadi. Boshqalar qatori qishloqni tashlab ketishga harakat qilayotgan farzandlarini olib qolishga intilayotgan Badr an-Ni'maning o'y-fikrlari farzandlari bilan bo'lgan turli suhbatlarda ochib beriladi. U o'z nasihatlarida muqaddas Qur'oni Karimdan asar mazmuniga mos ravishda oyatlar keltiradi.

⁹ عبد الرحمن مجيد الربيعي. سر الماء. قصص مختارة. سوسة-تونس. 1993. ص. 13.

¹⁰ Bobil-eramizdan oldingi III-II asrlarda qadimgi Mesopotamiyada gullab-yashnagan shahar.

¹¹ Xulagu xon (1217-1265)- XIII asrda Yaqin va O'rta Sharqda hukmronlik qilgan xon, Chingizxonning nevarasi.

¹² Nosir al-Ashqar (Nosir Sadun)-1840 yilda Nosiriya shahriga asos solgan shayx. Rangi malla bo'lganligi sababli "al-ashqar"- "malla" degan laqabni olgan.

“U kunda na mol manfaat berar va na bolalar¹³. Sizlar menga naf keltirmaysizlar, lekin men otalik va dinimiz vazifalaridan kelib chiqib sizlarni himoya qilaman. Men sizlarga uchta emas ikkita, birinchisi Allohga va ikkinchisi dinimizga bo‘lgan muhabbatni o‘rgatdim. Men u istagan narsani sizlarga berdim, sizlar dunyo va oxirat ne‘matlari bilan bahramand yashaysizlar... Biz ularga zulm qilmadik, lekin ular o‘zlariga zulm qilgan edilar.¹⁴”

“Farzandlarim Muhammad, Majid, Najma meni eshitinglar. Sizlarni u yoqlarga olib ketmoqchi bo‘lganlarning domiga tushmanglar. Biz va ota-bobolarimiz shu yerdan qo‘nim topdik va shu yerda qolamiz. Farzandlaringiz qalbiga sizlar ham xiyonat urug‘ini sepmanglar. ”

Yozuvchi bu so‘zlarni gapirar ekan, albatta, ota-onaning farzand tarbiyasida har doim hal qiluvchi omil ekanligini, o‘zi tug‘ilib o‘sgan makon muqaddas ekanligi, uning tuprog‘ini sevish kabi vatanparvarlik tuyg‘ularini yoshlar ongiga katta avlod singdirishi lozimligini ta’kidlab ko‘rsatadi, o‘z yerlarini tashlab chiqib ketayotgan minglab vatandoshlariga nido qiladi. Lekin ularning o‘z yerlarini tashlab, boshqa joylarga ish qidirib ketishlarining sababi nima? Albatta ishsizlik, yetishmovchilik, ocharchilik. Bu muammolarni ar-Rubay’iy Muhammadning quyidagi birgina gap bilan ochib beradi.

“Lekin ota, biz ochmizku, axir biz yeyishni xohlaymiz.”

Hikoyaning keyingi qismlari Muhammad, Najma va Majidga bag‘ishlanadi. Ularda yozuvchi Muhammadning o‘ziga to‘q oilalardagi maishatbozliklar, Najmaning bo‘lajak turmush o‘rtog‘i G‘oli al-Marzuq bilan bo‘lgan suhbatlari, Majidning shahar va qishloq hayoti haqidagi o‘ylarini, do‘sti Sa’dun al-Amirning shahar haqidagi taassurotlarini tasvirlaydi. Ayniqsa, uning do‘stiga aytgan gaplarida, garchi u shaharga ishlash uchun ketayotgan bo‘lsa-da, o‘z qishlog‘iga mehr qo‘yganligidan dalolat beradi. Yozuvchi uning bu gaplari bilan o‘quvchiga yana vatan, zamin muqaddas ekanligini eslatadi.

“Alloh va bu zamanga biz iymon keltirishimiz kerak. Alloh bizning rabbimiz, zamin esa sharaf-shonimizdir. Kim o‘z yeriga xiyonat qilsa, unga (Allohga) bo‘lgan hurmatga xiyonat qilgan bo‘ladi.”

Otalarining nasihatlari farzandlariga juda ta’sir qiladi va nihoyat ular shaharga ketmaslikka qaror qiladilar.

“Hamma ketsa ham Badrning farzandlari shu yerda qolishadi.Ularning qadamlari bu zamanga xush keldi va ular uning tuprog‘ining isidan boshqasini sezmadilar.”

Badrning aytgan so‘zlari farzandlari uchun qonun edi. Yozuvchi bularni ifodalar ekan, dinimizda muqaddas bo‘lgan ota-onani hurmat qilish, ularga mehr qo‘yish g‘oyasini ilgari suradi. O‘quvchiga sharq xalqlari qoniga singib ketgan urf-odatlarini eslatadi. Yozuvchi o‘z hikoyasini quyidagi mulohaza bilan yakunlaydi.

“Qishloqda Badrning farzandlari ahdga vafo qilganliklari va jismlari shu zamanga ko‘milgunga qadar o‘z qishloqlarini mutlaqo tashlab ketmaganliklari haqidagi rivoyat hanuzgacha saqlanib qolgan.”

XULOSA

Guvohi bo‘lganimizdek, hikoyada ko‘tarilgan asosiy g‘oya tug‘ilib o‘sgan zamanga muhabbat g‘oyasidir. Bu bilan yozuvchi barchani shu muqaddas burchga sodiq qolishga chorlaydi.

¹³ Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjiması.-T.: Sharq, 2009.371-bet.(Shu’aro surasi 88-oyat)

¹⁴ Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjiması.-T.: Sharq, 2009.280-bet.(Nahl surasi 118-oyat)

Yozuvchining “Yer isi” (رائحة الارض) hikoyasi shunday asarlardan biri bo‘lib, unda tarix va zamona uyg‘unlashib ketadi. Hikoyada yozuvchi Nosiriya (N) shahri manzaralari, undagi binolar ta’rifi, Furot daryosining bitmas-tuganmas suvlari haqida jo‘shib gapiradi. So‘ng yozuvchi Nosiriyaning tarixiga nazar soladi. Qadimda Furot daryosi qirg‘oqlarida chopgan Bobil otlari, o‘rta asrlarda bu yerlarda hukmronlik qilgan Xulagu xon, Nosiriya shahri asoschisi Nosir al-Ashqar haqida gapirib o‘tadi.

Hikoyada Majid ar-Rubay’iy Badr an-Ni’ma va uning farzandlari haqida so‘z yuritadi. Boshqalar qatori qishloqni tashlab ketishga harakat qilayotgan farzandlarini olib qolishga intilayotgan Badr an-Ni’maning o‘y-fikrlari farzandlari bilan bo‘lgan turli suhbatlarda ochib beriladi. U o‘z nasihatlarida muqaddas Qur’oni Karimdan asar mazmuniga mos ravishda oyatlar keltiradi, ota-onaning farzand tarbiyasida har doim hal qiluvchi omil ekanligini, o‘zi tug‘ilib o‘sgan makon muqaddas ekanligi, uning tuprog‘ini sevish kabi vatanparvarlik tuyg‘ularini yoshlar ongiga katta avlod singdirishi lozimligini ta’kidlab ko‘rsatadi, o‘z yerlarini tashlab chiqib ketayotgan minglab vatandoshlariga nido qiladi.

Yozuvchi hikoyada arab davlatlari muammosiga aylangan muhojirlik masalasini ko‘tarar ekan, bu yerlarga g‘arbliklar kelganlaridan so‘ng ko‘pchilik tinchlik va xotirjamlik izlab o‘z yerlarini tashlab chiqib ketganliklarini kuyunib gapiradi. Yozuvchi hikoyada bularni ifodalar ekan, dinimizda muqaddas bo‘lgan ota-onani hurmat qilish, ularga mehr qo‘yish, tug‘ilib o‘sgan zamanga muhabbat g‘oyasini ilgari suradi. Bu bilan yozuvchi barchani shu muqaddas burchga sodiq qolishga chorlaydi.